



QADIMGI TURKIY TILDA QARINDOSH-URUG'CHILIK LEKSIKASI
HAQIDA BA'ZI MULOHAZALAR

Marjona Orifova

SamDU filologiya fakulteti 3-bosqich talabasi

Ilmiy rahbar: dots.U.Rashidova

Annotatsiya: *Mazkur maqola qadimgi turkiy tilda ifodalangan qavm-qarindoshlik munosabatlarini ifodalovchi leksik birliklar tahlilga tortiladi. Kultigin, To'nyuquq bitiktoshlarida uchraydigan qarindoshlik terminlari mazmun va shakl jihatdan o'rganiladi. Tadqiqotda bu so'zlarning semantik xususiyatlari, etimologik ildizlari hamda ularning hozirgi o'zbek tilidagi izchil shakllari bilan qiyosiy tahlil qilinadi.*

Kirish so'zlar: *Qavm-qarindoshlik, leksika, Kultigin, To'nyuquq, etimologiya, semantik xususiyat, nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik.*

Аннотация: *В данной статье анализируются лексические единицы, выражающие родственные отношения в древнетюркском языке. Рассматриваются термины родства, встречающиеся в надписях Кюльтегина и Тоньюкука, с точки зрения их значения и формы. В исследовании проводится сравнительный анализ семантических особенностей и этимологических корней этих слов, а также их последовательных форм в современном узбекском языке.*

Ключевые слова: *Родство, лексика, Кюльтегин, Тоньюкук, этимология, семантическая особенность, родство, возникающее после брака.*

Annotation: *This article analyzes lexical units that express kinship relations in the Old Turkic language. The study examines the meaning and form of kinship terms found in the Kül Tigin and Tonyukuk inscriptions. It also provides a comparative analysis of the semantic features and etymological roots of these words, as well as their consistent forms in the modern Uzbek language.*

Key words: *Kinship, lexicon, Kül Tigin, Tonyukuk, etymology, semantic feature, post-marital kinship.*

Turkiy tillar, shu jumladan, o'zbek, uyg'ur tillaridagi qavm-qarindoshlik terminlari tilshunoslik nuqtayi nazaridan shu kungacha maxsus tekshirilmagan, vaholanki, bu mavzu tarixchi, etnograf, tilshunos olimlarni qiziqtirayotgan muammolardan biridir. Biroq terminologiyaning bu sohasida o'zbek, uyg'ur, qozoq, qoraqalpoq, turkman tillarida hali mukammal bir ish qilinganicha yo'q. To'g'ri, qirg'iz, o'zbek, qoraqalpoq tillarini tekshirish borasida yo'l-yo'lakay u tillarning shevalariga oid ba'zi bir qarindoshlik terminlari ustida gapirib o'tiladi. L. Pokrovskaya, X. Yusupov, S. Burnasheva, S. Nominxanovning umum turkologiyaga oid ishlarida esa o'zbek, uyg'ur tillaridagi terminlarga bir taraflama yondashilgan. Albatta, bu ishlar ham o'zbek, uyg'ur tilidagi qavm-qarindoshlik



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



terminlarining tarixiy taraqqiyoti, ularning leksik, grammatik ma’nolarini to‘liq yoritib berishni o‘z oldiga maqsad qilib qo‘ymagan.

O‘zbek tilshunosligida keyingi vaqtlarda yaratilgan ilmiy ishlardan biri B.O‘rinboevning qavm-qarindoshlik terminlarining bir tomonlama xususiyatini, ya’ni undov, murojaat anglatuvchi so‘zlar qatoridagi formasinigina tekshirishga bag‘ishlangan asaridir. I.Ismoilovning “O‘zbek tilida qavm-qarindoshlik terminlariga doir ba’zi mulohazalar” nomli maqolasida esa o‘zbek tilidagi qavm-qarindoshlik terminlarining klassifikatsion ro‘yxati, uning sinonimlari va qisman ma’nolari ustida mulohaza yuritish bilan chegaralanadi. Turkiy tillarda, xususan, o‘zbek tilida qarindosh-urug‘chilikka kiruvchi atamalar tizimi o‘ta takomillashganligi bilan ajralib turadi. E’tiborlisi shundaki, ushbu tizimni tashkil etuvchi atamalarning asosiy qismi sof turkcha.

G‘.Aydarovning ko‘rsatishicha, O‘rxun-Yenisey (Enasoy) yodnomalarida qayd etilgan QQTlaridan 90 foizga yaqini (bulardan ayrimlari fonetik o‘zgarishga uchragan holda) hozirgi turkiy tillarning ko‘pchiligida mavjuddir. Haqiqatdan, O‘rxun-Enasoy yozma yodgorliklari tilida qayd etilgan ata, ada, ana, aba, acha, og‘ul, qiz, aqa, sinil, ini, er, qatun, yigit, qarindash singari QQTlari hozirgi turkiy tillar, shu jumladan, o‘zbek tili va shevalarida ham u yoki bu fonetik o‘zgarishga uchragan holda faol qo‘llanib kelmoqda.

Qadimgi turkiy til bitiklarida va o‘zbek shevalarida qon-qarindoshlik aloqalarini tizimlashtirish

Qadimgi turkiy til bitiklarida qarindosh-urug‘chilik nomlari	Qadimgi turkiy til bitiklarida qarindosh-urug‘chilik nomlarining ma’nolari	O‘zbek shevalarida qarindosh-urug‘chilik nomlari	O‘zbek shevalarida qarindosh-urug‘chilik nomlarining ma’nolari
Apä	oilada yoshi katta bo‘lgan shaxsga nisbatan ishlatilgan.	Kattaota, katata, katta, kattadada, bova, buva, bovay, bava	1.Otaning yoki onaning otasi 2.Otadan katta yoshdagi har qanday erkak
Qan	farzandli, bola-chaqali er kishilar	Ata, padar, ota, o‘ta, ada, dada	farzandli, bola-chaqali er kishi
Ag	Farzandi yoki farzandlari bo‘lgan xotin	Acha, ocha, aba, aya, biyi, bibi, ena, ana,	Farzandi yoki farzandlari bo‘lgan xotin
Açi	bir ota-onadan tug‘ilgan katta o‘g‘il	Aka akcha, ake, oka, og‘a, birodar	bir ota-onadan tug‘ilgan katta o‘g‘il
Qiz	ayol jinsiga	Qiyz, qiis	ayol jinsiga



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G‘OYALAR



	farzand mansub		farzand mansub
Siqil	bir ota-onadan tug‘ilgan qizlarning kichigi	Siyni, si:ni	1.bir ota-onadan tug‘ilgan qizlarning kichigi. 2.xotin-qizlarga hurmat ma’nosida
Og‘il	erkak jinsiga mansub farzand	U:l, o‘g‘il, uvul, vog‘il, o‘g‘lon	erkak jinsiga mansub farzand

Yozma obidalar tilida uchraydigan yaqinlik yoki qavm-qarindoshlik tushunchasini bildiradigan so‘z-terminlar qanchalik turg‘un bo‘lmasin, vaqtlar o‘tishi bilan rivojlanadi, o‘zgaradi va adabiy tilga siljiydi. Aniqrog‘i, oila, nikoh so‘zlarining yangi shakllari paydo bo‘lishi bilan bu so‘z-terminlarining doirasi ham o‘zgaradi. Yozma obidalar tilida ätä, qan, ög, siqil, äpä, oğul, qiz, ağa, ini, çoluq, är, qatun, äkä, kälın, ingün, jigün, açi va boshqa shunga o‘xshash qavm-qarindoshlik tushunchasini bildiradigan so‘z-terminlar uchraydi. Ularni leksik-semantik tomondan quyidagicha guruhlashtirish mumkin: 1) Qon-qarindoshlik terminlari; 2) Nikohdan keyin yaqinlikni bildiradigan terminlar. Qon-qarindoshlik terminlari. Bu kabi terminlarga ätä, qan, ög, siqil, äpä, oğul, qiz, ağa, ini, çoluq, är, äkä, ingün, jigün, açi va boshqa shunga o‘xshashlarni ko‘rsatish mumkin.

Qan termini IX-X asr yozma obidalarida ätä, qan va ädä kabi shakllarda ishlatilgan bo‘lsa, X-XI asrda ham xuddi shunday ishlatilgan. Ammo XI-XIV asrlarda äbä shaklidir. Ata termini farzandli, bola-chaqali er kishilar. Ota so‘zi semantik jihatdan har xil ma’nolarida ham ishlatilgan. Qanım qağan uçduqda inim Kül tigin yit...(Kultigin bitigi)

Ag termini ham har xil ko‘rinishlarda bo‘lgan. IX-X asrlarda ög shaklida, X-XI asrlarda änä va X-XIV asrlarda esa äbä, äpä, änä shakllarida ham qo‘llanilgan. Ona termini, asosan, farzandli shaxslarga nisbatan aytilgan, ona so‘zi keyingi davrlarda har xil semantik xususiyatga ega bo‘la boshlagan. Subi ança tämis: “Türük bodun yoq bolmazun” tiyin, “bodun bolçun” tiyin qanım Ältäris qağanıg, ögüm Ilbilgä qatunuğ täñri töpüsintä tutup yögärü kötürmis ärinç (Kultigin bitigi)

Açi termini. Bu IX-XI asr yozma obidalar tilida açi shaklida ishlatilgan bo‘lsa, X-XIV asrlarda esa aka shakli ham ishlatila boshlagan. Kisi oğlınta üzä äcüm apam Bumın qağan, İstämi qağan olurmıs. Olurupan türük bodunuq älin tör[ü]sin tuta birmıs, iti birmıs (Kultigin bitigi)

Qiz termini “ayol jinsiga farzand mansub”, “balog‘at yoshiga yetmagan ayol”. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma’noni anglatgan bu so‘z asli qiz tarzida talaffuz qilingan (Devon, I, 315; DS, 449); keyinchalik o‘zbek tilida i unlisining qattiqlik belgisi yo‘qolgan. qiz > qiz. Urxun yodnomalarida qiz oğil, ya’ni qiz bola ma’nosidadir. X-XIV asrdan keyin bu so‘zning ma’nosi kengaydi. Barduq yärdä ädgüg ol ärinç: qanım subça yügürti, söñükün



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



tağça yatdi, bāglik urī oğluḡ qul bolti, silig qiz oğluḡ küḡ bolti bilmädük üçün...(Kultigin bitigi)

Apä termini. Bu termin XI-X asrlarda oilada yoshi katta bo'lgan shaxsga nisbatan ham ishlatilgan. Uning äbä ko'rinishi ham mavjud. Yäti yüz är bolup älsirämis, qağansiramis bodunuḡ, künädmis, quladmis bodunuḡ, türük törüsin icünmis bodunuḡ açim apam törüsinçä yaratmis, boşğurmis. yäti yüz är bolmis.

Siñil termini. Mazkur termin qon-qarindoshlik termini sifatida qadimdan ma'lum bo'lib, turkiy tillarning yozma yodgorliklarida sinil tarzida ifodalangan. Siñlim qunçuyuḡ birtimiz. Özi yañilti, qağani ölti, boduni küḡ qul bolti (Kultigin bitigi)

Nikohdan keyin paydo bo'lgan qarindoshlik terminlari. Nikoh er-xotinlikni rasmiylashtirishdir. Bu turdagi terminlarga är, qatu, ärän, kişi, ävluq va boshqalar kiradi. VI-XIV asrlarda är so'zi, ko'proq jangovor, mard ma'nosida ishlatilgan.

Qatun (xatun) so'zi turkiy tillarda nikohdan so'ng paydo bo'lgan qarindoshlik termini bo'lib, turkiy tillarning yozma yodgorliklarida qatun, qatun kisi shakllarida uchraydi. Uzuk, uraḡ'ut, aran va avluq kabi ko'rinishlari ham ishlatilgan. Qatun yoq bolmis ärti, ani yoḡlatayin, tädi. Sü barıḡ, tädi, Altun yisda oluruḡ, tädi. Sü başi Inäl qağan, tarduş şad barzun, tädi (To'nyuquq bitigi)

Oḡil termini. Oḡlon- "balog'atga yetgan o'g'il, yigit". Bu so'z asli qadimgi turkiy tilda oḡul otiga izzatlash ma'nosini ifodalovchi -(a)n qo 'shimchasini qo'shib hosil qilingan. Qo'shimcha qo'shilgandan keyin ikkinchi bo'g'inidagi tor unli talaffuz qilinmay qo'yan; o'zbek tilida a unlisi ä unlisiga almashgan: oḡul+an>oḡlan>oḡlän. Tabḡaç bodunqa bāglik urī oḡlin qul bolti, silik qiz oḡlin kuḡ bolti. (Kultigin bitigi)

Kalin termini. Bu kelin terminining genezisi hamma turkiy tillarda kelmak, kälmaq, gelmek fe'lining asosi kel (o'zb); kal(uyg'); gel(turkm) ga sifat, fe'l va ot yasovchi arxaik -in; -un affiksining qo'shilishidan tarkib topgan. Mazkur termin turkiy tillarda qizni to'ydan keyin yigitning qarindoshlari va ota-onasi tomonidan ikkinchi bir shaxsga tanishtirish uchun ishlatiladi. Ögüm qatun, ulayu öglärim, äkälärim, käliḡünüm, qunçuylarim, bunça yama tirigi küḡ boltaçi ärti, ölügi yurtda, yolta yatu qaltaçi ärti (Kultigin bitigi)

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, qadimgi turkiy tildagi bitiktoshlarda ifodalangan qavm-qarindoshlik terminlari va yaqinlik nomlari turkiy xalqlarning tarixiy aloqa va munosabatlari, etnik kelib chiqishlari va tilning tarixiy taraqqiyoti bilan chambarchas bog'liqdir. Shuning uchun ham qavm-qarindoshlik, ba'zi fonetik farqlarni hisobga olmaganda, ota, ona, o'g'il, qiz, bola, opa, singil, uka, og'a, xotin, kelin, yanga terminlari turkiy tillarning hammasi uchun xosdir, ular umumturkiy terminlardir.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Rahmonov N., Sodiqov Q. O'zbek tili tarixi. –T.:O'zbekiston faylasuflari milliy jamiyati nashriyoti, 2009. -224b.



TANQIDIY NAZAR, TAHLILIY TAFAKKUR VA INNOVATSION G'UYALAR



2. Исмоилов И. Туркий тилларда кавм-қариндошлик терминлари. -Т.: Фан, 1966. -155б.
3. Абдурахмонов Н. Қадимги туркий тил. -Тошкент:Ўқитувчи, 1989.-161б.
4. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати 1-жилд. -Тошкент: Университет, 2000. -600б.
5. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати 2-жилд. -Тошкент: Университет, 2003. -600б.
6. Раҳматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этимологик луғати 3-жилд.- Тошкент: Университет, 2009. -283б.
7. Ўзбек шевалари луғати. - Тошкент: Фан, 1971. -406б.

